

2014

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:43 (67000)

2014-yil

27-oktabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

MUZEYDA O'TILGAN DARS



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan. Ya'ni, ushbu ta'lim maskani o'quvchilari ustozlari bilan tez-tez muzeylarga tashrif buyurib, noan'anaviy darslar, adabiy uchrashuvlar o'tkazib turishadi.

(Davomi 3-beta)

Yosh avlodga puxta ta'lim-tarbiya berish, iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi.

IJODIY PARVOZGA QANOT



«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Xalq ta'limi vazirligi va «Kamalok» bolalar tashkiloti hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Kamalok yulduzlari» respublika bolalar ijodiyoti festivali ham ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilayotgan loyihalardan biridir. Mazkur ijodiy anjuman bolajonlar iste'dodini keng miqyosda namoyon etish, bilimi hamda ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ular qalbida ijodkorlik, yaratuvchanlikka ishtiyoq uyg'otishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda festivalning poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida bo'lib o'tgan Toshkent shahar bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimida ham shular haqida so'z yuritildi.

Bu yilgi tanlovda mamlakatimizning barcha hududlaridan 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 36 mingdan ziyod o'g'il-qiz qatnashayotir. Iqtidor egalari mumtoz va milliy musiqa, qo'shiq, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda badiiy ijod yo'nalishlarida o'zaro bellashishmoqda. Jumladan, Toshkent shahar bosqichida 5800 nafar bola ishtirok etish istagini bildirgan. Ulardan 410 nafari shahar saralash bosqichida iqtidor va mahoratini namoyish qilish imkoniga ega bo'ldi.

– Naqqoshlik hamda ganchkorlikka qiziqaman, – deydi tanlovning «Tasviriy va amaliy san'at» yo'nalishi g'olibi Miraziz Mirsaidov. – O'zim tahsil olayotgan Uchtepa tumanidagi 38-umumta'lim maktabida ayni shu yo'nalishdagi to'garakka qatnayman. Kelgusida ijodiy ishlarim bilan xalqaro miqyosdagi tanlovlarda qatnashib, yurtimiz nomini yanada ulug'lashga o'z hissamni qo'shmoqchiman.

Yakunda eng iqtidorli deb topilgan 20 nafar o'g'il-qiz tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Jamshid KAMOL.
Islom ISMOILOV olgan surat

DIQQAT! DIQQAT!



«Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishga shoshiling!

Nashr ko'rsatkichi – 198

Sf. MAXMADIKOV olgan suratlar

Insoning qo'li gul, deganlaricha bor. Qashqadaryo viloyatining cho'l hududida joylashgan Nishon tumaniga borib, bunga yana bir bor amin bo'ldik. Tumanda qad rostlagan ko'rkam binolarni, namunaviy uy-joylarni, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini, zamonaviy uslubdagi umumta'lim maktablarini, ko'rkam litsey va kollejlarni ko'rib, cho'lni bo'stonga, gulistonga aylantirgan insonlarning g'ayrat-shijoatiga tasannolar aytdik.

Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanida bugungi kunda jami 38 ta maktab, 20 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi, 2 ta bolalar musiqa va san'at maktabi va 1 ta

CHO'L BAG'RIDA BITGAN GULISTON

«Qo'shni tumanlarga, hatto poytaxtga mehmonga borsak ham, ikki kunda Nishonimizni sog'inib qolamiz», deyishadi tumanning kattakichigi. Ayniqsa, zamon talablari darajasida jihozlangan o'quv maskanlarida ta'lim olayotgan, turli to'garaklarga qatnab, fan, kasb-hunar sirlarini

OITS, diniy ekstremizm kabi illatlarning oldini olishga qaratilgan bir qancha tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etildi.

Jumladan, viloyat «O'zbek jang san'ati» federatsiyasi tashabbusi bilan 20-umumta'lim maktabida viloyat ochiq birinchiligi o'tkazildi. Musobaqada 222 nafar (shundan 45 nafari qizlar) sportchilar ishtirok etdi.



o'rganayotgan, sport majmualarida o'zi sevgan sport turi bilan shug'ullanayotgan o'g'il-qizlar kayfiyatidagi ko'tarinkilik, ishtiyiq o'zgacha.

– Istiqolning dastlabki kunlaridanoq yosh avlod ta'lim-tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan qilib belgilandi. Prezidentimiz tomonidan puxta o'ylangan va ilmiy asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturiga singdirilgan hayotbaxsh g'oyalari o'quvchi-yoshlarimizning bilim va salohiyatida, xalqaro fan olimpiadalarida erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday yutuqlarga tumanimizning iqtidorli, bilimli, zukko o'g'il-qizlari ham munosib hissa qo'shib kelayotganliklari ko'ksimizni tog' qiladi, – deydi tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Shomurod Murodov.

Respublikamiz o'quvchilari o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida 35-DIMning 6-sinf o'quvchisi Akrom Abdunabiyeov geografiya fanidan, 7-sinf o'quvchisi Gulruh Salomova va 8-sinf o'quvchisi Marjona Ahmedova ona tili va adabiyoti fanidan faxrli 1-o'rinni egallab, tanlovning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdilar hamda Gulruh 2-, Marjona esa 3-o'ringa munosib topildi.

Yosh avlod tarbiyasida xalqimizning boy milliy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga tayangan holda «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasi hayotga tatbiq etildi va bu sohada olib borilayotgan ishlarning samaradorligini yanada oshirdi.

Yoshlarning ma'naviy kamolotida kitobning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham umumta'lim maktablari qoshida axborot-resurs markazlari tashkil qilish ishiga alohida e'tibor qaratamiz. Tumandagi 1-, 4-, 13-, 31-, 35-umumta'lim maktablari qoshida tashkil etilgan axborot-resurs markazlari tevarak-atrofdagi maktablar uchun ham tayanch kutubxonalar bo'lib xizmat ko'rsatmoqda. Ushbu ziyo maskanlari zamonaviy jihozlari va texnika vositalari bilan ta'minlangan.

«Sog'lom bola yili» munosabati bilan tuman xotin-qizlar qo'mitasi, madaniyat va sport ishlari, ichki ishlar bo'limlari, xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi, «Kamolot» YOIH, «Yoshlik» JTSJ bilan hamkorlikda voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, kashandalik, giyohvandlik,



o'g'il-qizlarimizni yurtimizga, xalqimizga munosib avlod qilib tarbiyalashdir. Bu ezgu maqsad yo'lida bor bilimimiz, tajribamiz, kuch-quvvatimizni ayamaymiz...

ERTAKNAMO QASR DEYSIZ...

Nishonlik 1269 nafar bilimga chanqoq o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olayotgan 35-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabini «Iqtidorlik maskani» deya atagimiz keldi.

Boisi, mazkur bilim dargohida yetuk va salohiyatli avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani siddiqildan bajarib kelayotgan Shoiria Omonova, Nasiba Eshquvatova, Jumagul Boboniyozova, Xursand Mengliyeva singari o'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz-murabbiylarga munosib shogirdlar kamol topayotganiga guvoh bo'ldik. Rango-rang xushbo'y gullarga, yashillikka burkangan mazkur bilim dargohini cho'l bag'rida qad rostlagan ertaknamo qasrga qiyoslasak arziydi. To'rt qavatli muhtasham binodagi ozodalik, saranjom-sarishtalikdan kishining dili yayraydi. Zamon talablari darajasida jihozlangan o'quv xonalari, ko'plab fan, sport, san'at to'garaklari o'quvchilar ixtiyorida. Qadrdon maktabiga o'z uyidek mehr qo'ygan tajribali rahbar Xolmurod Shoto'rayev, o'quv

bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Maktablardagi 21890 nafar o'quvchiga 1853 nafar tajribali, fidoyi o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berishadi. O'quvchi-yoshlarimiz o'z navbatida ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga turli sohalarda qo'lga kiritayotgan salmoqli yutuqlari bilan munosib javob qaytarishyapti.

ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Oynaxol Mardonova, ahil va hamjihat o'qituvchilar jamoasi hamda ularning shogirdlari sa'y-harakati, mehnatlari samarasi bu.

Shogird ustozga qarab bo'y cho'zadi, deydi dono xalqimiz. Bu maskanda kasbiga bo'lgan mehri, sadoqati tufayli el mehrini qozongan e'zozli ustozlariga havas qilib ko'plab yutuqlarga, muvaffaqiyatlarga erishayotgan o'quvchilar talaygina. A'lochi o'quvchilardan biri Marjona Ahmedova 2013–2014-o'quv yilida «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Bu birgina misol. Vaholanki, maktabni...



Zebo Sattorova, Charos Suyunova, Aziza Muhammedova, Shahridin Qilichev, Shohrux O'ljayev, Abdulaziz Qobilov, Maftuna Ergasheva kabi iqtidorli o'quvchilari tuman, viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda, fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvlarida qatnashib, jonkuyar ustozlari mehnatini, zahmatini oqlab kelishyapti.

Chindan ham bugunning baxtli bolalariga havas qilsak arziydi. Chunki mamlakatimizda ularning puxta bilimli, yuksak salohiyatli bo'lib kamol topishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Bilimli, zakiy yoshlarimizning qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlari esa ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan alohida e'tiborning totli mevasidir.

Feruza JALILOVA.
Rustam XOLTO'RAYEV
olgan suratlar



Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchimiz Yulduz opa o'zbek tilimizga boshqa tillar so'zlarini aralashtirib suhbatlashishimizni anchadan buyon kuzatib yurgan ekanlar. Kuni kecha bizni darsdan so'ng olib qoldilar:

USTOZIMIZ TANBEHI



– O'quvchilar, nega ona tilimizni buzib gapirasiz? Hali chet tillarini mukammal o'rganmay turib, o'z tilingizga aralashtirib gapirishingiz yaxshi emas. O'zimizning qanday jozibali, go'zal tilimiz bor!

Ustozimizning jon kuydirib gapirganlarini ko'rib, ham uyulib, ham ta'sirlanib ketdik. Shu kundan boshlab sof ona

tilimizda so'zlarni buzmay gapirishga harakat qila boshladik. Lekin chet tillarini ham mukammal o'rganish maqsadida izlanishlarimizni susaytirmadik.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

ONA TILI – MILLAT FAXRI

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim maktabida shoirlar - Shukur Qurbon, Muhiddin Omon va gazetamizning ijodiy xodimlari bilan bo'lgan uchrashuv o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan sanaga bag'ishlandi.



Nigora Ergasheva rahbarlik qilayotgan mazkur ilm dargohida 34 nafar pedagoglar 500 nafar o'quvchiga ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda. Ona tili va adabiyoti fani oyiligi davom etayotgan shu kunlarda o'quvchilar bayramga bag'ishlab ustozlari Farida Ermuhammedova, Xolida Arslonova, Nargiza Avazova boshchiligida devoriy gazetalar, bukletlar, albomlar tayyorlashdi. Bu ta'lim maskanida tashkil etilgan «Savodxonlik», «Chiroyli yozuv», «Drama» to'garaklarida olib borilayotgan mashg'ulotlarda nutq madaniyati, ifodali o'qishga katta e'tibor qaratilayotganining samarasidir.

Yaqinda maktabda «Ona tili – millat faxri» deb nomlangan insholar ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Unda 9-«A» sinf o'quvchisi Madina Aminjonovaning yozgan inshosi 1-o'ringa loyiq ko'rildi.

Til bayramidagi ijodiy uchrashuvda shoirlar so'zga chiqib, tilimizning ulug'ligi, buyuk allomalarimiz ham shu tilda ijod qilishgani haqida so'zladi. Ba'zan bilib-bilmay og'zaki nutqda boshqa tillardagi so'zlarni aralashtirib so'zlashimiz tilimizga nisbatan hurmatsizlik belgisi ekanini alohida ta'kidlab o'tdilar. So'ngra shoirlar Vatan, ona tilimiz haqida yozgan ijod namunalari bilan yig'ilganlarga o'qib berishdi. Ayniqsa, o'quvchilar bilan o'tkazilgan viktorina savollari, qiziqarli so'z-yinlari davraga o'zgacha fayz kiritdi. «Maqolning davomini ayt» deb nomlangan so'z o'yinida o'quvchilar o'zbek xalq maqolini davom ettirib, o'zlarining zukkolig-u hozirjavobliklarini namoyish etishdi. 5-«A» sinfining a'lochi o'quvchilaridan Marjona Hasanboyeva, Ibrohim Qo'chqorov, Hafizullo Tuyg'unovlar savollarga aniq, lo'nda javob qaytarishdi. Maktabning musiqa fani o'qituvchisi Salomat Eminova rahbarligidagi «Bulbulcha» folklor dastasi qatnashchilari ijrosidagi raqslar davraga yanada fayz kiritdi.

Dilorom HOTAMOVA

DIL KALITI

G'allaorol tumanidagi 26-umumta'lim maktabida ana shu mavzuda kecha bo'lib o'tdi.

O'quvchilardan Go'zal Husanovaning «Tilga e'tibor – elga e'tibor», Farangiz Yusupovaning «Davlat tili haqida» va tajribali pedagog Zulfiya Xolboyevaning «Til – millat ko'zgusi» mavzularidagi ma'ruzalarini yig'ilish ishtirokchilari zo'r qiziqish bilan tingladilar.

Ayniqsa, adabiyot to'garagi a'zolari tomonidan tayyorlangan «Savodxon» devoriy gazetasi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Yuqori sinf o'quvchilaridan Zumrad Baxtiyorova, Sarvinov Tursunova va Gulhayo Yusupovaning she'r, maqola va boshqotirmalarida tilimizning go'zalligi, uning boyligi xususidagi fikrlari maktabdoshlariga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Feruza ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati



Suratda: kutubxona mudirasi Z. Egamqulova o'quvchilar bilan.

BOBOMDAN MINNATDORMAN

Bolaligimda bobomdan ko'p ertak va dostonlar tinglardim. Ayniqsa, «Alpomish», «Kuntug'mish» kabi xalq dostonlari qahramonlarining shijoati, mardliklari zavqimni oshirardi.

Beixtiyor ularga o'xshashga intilardim. Keyinchalik o'zim ham kitoblar mutolaa qiladigan bo'ldim. Mendagi qiziqishni payqagan otam uyimizda shaxsiy kutubxona tashkil etdilar. Bu men uchun katta xazina bo'ldi. Biror kitobni o'qib bo'lgach, u haqidagi mulohazalarimni daftarga yozib, adabiyot o'qituvchimiz Feruza opaga ko'rsataman. Ustozim bilan o'zaro fikr almashaman.

Mendagi kitobga bo'lgan havasni uyg'otganlari uchun bobojonimdan minnatdorman.

Rohilabonu G'O'CHCHIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi
71-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

MUZEYDA O'TILGAN DARS

(Davomi. Boshi 1-betda)

Ana shunday uchrashuvlardan biri yaqinda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida bo'lib o'tdi. «Oktabr – ona tili va adabiyoti fani oyiligi» doirasida o'tkazilgan mazkur noan'anaviy darsda adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov ham ishtirok etdi. Umumta'lim maktabi o'qituvchilari Mahmuda Valiyeva hamda Muxtasar Umarova tomonidan tashkil etilgan ushbu dars «Hamid Olimjon – hassos shoir» mavzusiga bag'ishlandi.



– Muzeydagi dars juda maroqli o'tdi. Atoqli shoir Hamid Olimjon haqida professor Naim Karimovdan ko'plab ma'lumotlar oldik, – deydi 274-umumta'lim maktabi 5-«A» sinf o'quvchisi Dilnura Abdullayeva. – Ayniqsa, shoir she'rilaridan ravon yod aytib berganim uchun adabiyotshunos olimning kundalik daftaramga «5» baho qo'yib berganlari meni juda quvontirdi.

Adabiyot muzeyida o'tilgan dars taassurotlarga boy bo'ldi.

Jamshid KAMOL

POYTAXT MAKTABLARIDA

MAKTABDAGI UCHRASHUVLAR

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida elimiz suyg'an san'atkor Mirza Azizov bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.



Tadbir davomida sho'x kuy-qo'shiqlarga o'quvchilar tomonidan raqslar ijro etildi. Aktyor o'ynagan filmlardan lavhalar namoyish etildi.

Shundan so'ng tadbirning savol-javob qismi boshlandi. «Dastlabki o'ynagan rolingiz?», «Aktyor bo'lmaganingizda kim bo'lardingiz?», «Ustozlaringiz?», «Oilangiz haqida to'xtalsangiz?» kabi savollarga ijodkor atroflicha javob qaytardi. «Salbiy rollaringizga muxlislaringiz munosabati qanday bo'ladi?» degan savolga Mirza aka quyidagicha javob berdi:

– Kimdir to'g'ri qabul qiladi. Yana kimdir esa aksincha, noto'g'ri tushunadi. Ko'cha-ko'yda muxlislarga ro'para kelganimizda, «Mirza aka, biz sizni yaxshi inson deb o'ylardik, lekin kechagi rolingizdan keyin ancha hafsalamiz pir bo'ldi», deyishadi. Shunda ularga bu oddiy rol ekanini tushuntirishga harakat qilamiz.

Kecha so'nggida san'atkor bolalarga o'zining eng ezgu tilaklarini bildirib, ularning o'qish va ishlarida omad tiladi.

Muzaffar AHMEDOV

JASURBEKNING RANGIN OLAMI



Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingiz Jasurbek Usmonov poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 159-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga sportning kikkoksing turi bilan ham muntazam shug'ullanadi. «Sport insonni har tomonlama tetik, kuchli va irodali bo'lishiga yordam beradi. U har bir kishining do'stiga aylanmog'i lozim», deydi u. Jasurbekning orzulari bir olam. Jumladan, u kelajakda el havas qiladigan aktyor bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shuning uchun ham Jasurbek O'zbek Milliy akademik drama teatri qoshida tashkil etilgan «Tasanno» bolalar teatri guruhida bir necha yillardan buyon qatnashib keladi. Tengdoshingiz «Sehrlangan shahzoda»da Muk, «Elchigul» spektaklida Quyosh nurini, «Buratino»da Buratino, «O'zbekcha raqs» va «Yangi yil sarguzashtlari» spektakllarida talqin etgan obrazlari orqali barchada iliq taassurot qoldirgan.

Barno MAMAJONOVA,

Shayxontohur tumanidagi 59-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 104-umumta'lim maktabida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 25 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi.

Kechaga taniqli olimlar – filologiya fanlari doktori Boqjon To'xliyev, Alisher Mirazizov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoira Umida Abduazimova taklif etildi.

Tadbir boshida Boqjon aka To'xliyev Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida keltirilgan «Ardam bashi til» maqolini aytib, insonning har bir ishi so'z bilan boshlanishi, tilga e'tiborda bo'lish lozim ekanini bir necha misollar bilan o'quvchilarga tushuntirdilar. Alisher aka Mirazizov bolalarni mamlakatimiz ta'lim sohasida tilga, ayniqsa, o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor bilan tanishtirdilar. Shundan so'ng bu ikki olimga o'quvchilar bilan

do'stona aloqalari uchun maktab direktori Ahadjon G'ulomov tomonidan faxriy yorliq topshirildi.

Bilim dargohi adabiyot o'qituvchisi Nasiba opa Rayimqulovadan so'z olgan taniqli shoira Umida opa Abduazimova o'zining maktab, bolalik haqidagi she'rlari bilan tadbirni yanada qizg'in o'tishini ta'minladilar. Suhbatdan zavqlangan o'quvchilar yig'ilganlarga o'zlari tayyorlagan bayram dasturini namoyish etishdi. Ularning biroz hayajon, ammo qat'iyat bilan o'ynagan rollari, ijro etgan raqslari, til, Vatan, ona, maktab haqidagi o'qigan she'rlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Alisher FAYZULLAYEV

«TONG YULDUZI»NING ENG YAXSHI O'QUVCHISI

Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi Shahlo Habibullayeva o'zini «Tong yulduzi» gazetasi

eng yaxshi o'quvchisi deb hisoblaydi. U bilan suhbatlashganimizda biz ham bunga amin bo'ldik. Chindan ham Shahlo gazetaning har bir sonini kuzatib, undagi maqola va she'rlarni, ayniqsa, ingliz tili sahifasini muntazam o'qib borar ekan. Respublikamizda ilk marotaba o'tkazilgan «Ingliz tili bilimdonlari»da muvaffaqiyatli qatnashishiga esa albatta, ustozlari, qolaversa, «Tong yulduzi» gazetasi

ZUBAYDA. Muallif olgan surat

ORZULARI BIR DUNYO

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 322-umumta'lim maktabining 9-sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Sevara Mansurovani barcha maktabdoshlari yaxshi taniydi. Chunki u ta'lim maskanida o'tadigan har bir tadbirga raqs ustози Dinara Hojiakbarova yordamida yangi raqslar tayyorlaydi-da. Maktabdagi darslar, to'garaklardan tashqari mahallada tashkil etilgan «Orasta qizlar» klubida suhbatlar, bellashuvlar uyushtiradi.

– Maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Insholar bilimdoni» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida «Mening orzum» nomli ijodiy ishim bilan qatnashib, 2-o'rinni egalladim. Darsdan so'ng ingliz, rus tili, raqs to'garaklariga qatnayman, bo'sh vaqtlarimda esa munchuqlardan turli buyumlar yasayman, to'qishni yoqtiram.

Maktabimizda tashkil etilgan «Raqs guldastasi» to'garagida jajji qizlarga milliy, xorijiy musiqalarga raqs tushishni o'rgataman. Kichik shogirdlarimning

erishayotgan yutuqlarini ko'rib, quvonaman. O'zimga kelsak, kelajakda Zulfiyaxonim qizlari safidan joy olishni maqsad qilib qo'yganman. Shuningdek, yetuk tarjimon bo'lib, xorijliklarga yurtimizdagi olamshumul o'zgarishlar, buniyodkorlik ishlari hamda yoshlarning erishayotgan yutuqlari haqida faxrlanib so'zlab berish niyatim bor, – deydi u.

Niyating ijobat bo'lsin, Sevara!

O. TURSUNBOYEVA



UZODA olgan surat

Lesson 8

TRUE OR FALSE?

(To'g'rimi yoki noto'g'ri?)

How much do you know about animals? Write T for True or F for False.

1. Kittens are young cats. T

2. Rabbits can bite.

3. Dogs often miaow.


4. Dogs and cats can be friends.

5. Dogs are old puppies.

6. Rabbits can sing.

7. Donkeys have not got ears.

8. Geese are always noisy.



ANIMAL WORD SEARCH

(Jonivorlarning nomini toping)

Find and write seven animals. → ↘ ↓



Y	D	C	A	T	J
G	O	O	S	E	N
H	G	W	P	F	K
R	A	B	B	I	T
L	P	Z	M	S	G
D	U	C	K	H	H



MAKE QUESTION SENTENCES

(So'roq gap yasang)

Make question sentences and answer them.

e.g 1. the/ lesson/Tuesday/on/what's/second?

What's the second lesson on Tuesday?

2. Wednesday/what's/third/on/lesson/the?

3. first/the/Monday/what's/lesson/on?

4. what's/on/second/lesson/the/Thursday?

5. fifth/on/what's/the/Tuesday/lesson?

6. on/what's/Saturday/the/lesson/fourth?



Timetable

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

A BOY WITH READY ANSWER

(Hozirjavob bolakay)

A train stopped at a small station. A passenger looked out of the window and saw a woman who was selling cakes. The gentleman wanted to buy a cake. But the woman was standing rather a long way from the carriage. The gentleman didn't want to go for the cake himself. So he called a little boy who was on the platform near the carriage and asked him: «How much does a cake cost?». «Three pence, Sir», - answered the boy. The gentleman gave him 6 pence and said to him: «Bring me a cake and with the other 3 pence, buy one for yourself». A few minutes later the boy came back. He was eating a cake. He gave the gentleman 3 pence change and said: «There was only one cake left, Sir».

New words:

Passenger - yo'lovchi

Sell - sotmoq

Carriage - vagon

Call - chaqirmoq

Bring - olib kelmoq

Come back - qaytib kelmoq

Change - qaytim

Leave (left) - qolmoq, qoldirmoq

Risolat ISMOILOVA

DIALOGUE

In the shopping (Do'konda)

Salesman: Hello, welcome to the supermarket.

Customer: Hi, excuse me, can you help me?

S: Yes, please. What problem do you have?

C: Where is the shoes department?

S: On the second floor

C: Thank you.

- On the second floor -



C: I'd like to buy a pair of shoes hell strap sandals.

S: What size do you wear?

C: My size is 37

S: Here it is.

C: May I try it on?

S: Yes, of course.

C: It is very comfortable. How much does it cost?

S: It is 30000 sums

C: Here it is 30000 sums, thank you.

S: Good bye.

C: Bye - bye.

Gulnora TOSHQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
7-umumta'lim maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi



IFTIXOR

Obod manzillardan boramiz shoshib,
Qancha mashaqqatlar, dovonlar oshib.
Daryoday chayqalib, dengizday toshib,
Baxtli bolalikning baxti bor bizda.

Dadil bormoqdamiz shaxdam qadamlar,
G'animat ozodlik bergan bu damlar.
Yurt uchun siz yonib yashang odamlar,
Beg'ubor yoshlikning baxti bor bizda.

Istiqlol qaytargan Vatan muqaddas,
Shu keng paxtazorlar, chaman muqaddas.
Jannatdan ko'rk olgan maskan muqaddas,
Bugun To'marisning shaxti bor bizda.

O'zbekning Uvaysiy, Nodiralari,
Biz buyuk Temurning nabiralari.
Bormoqdamiz obod manzillar sari,
Temurning shiddati-jahdi bor bizda.

Shu yurtga siz tirkak bo'ling, vatandosh,
Boshimizda tinchlik atalmish Quyosh.
Yashang orzularga tutinib sirdosh,
Orzular saroyin taxti bor bizda.

Keldi qo'lni qo'lga beradigan dam,
Istiqlol yo'lidan boramiz bardam.
Lol qilamiz hali dunyolarni ham,
Beg'ubor yoshlikning baxti bor bizda.

Shalolaxon TOJIBOYEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani



Go'zal bog'ing maftunkor,
Baland tog'ing fusunkor.
Mevalaring shirin-bol,
Ona xalqim - o'zbekim.

Tug'ildim Vatan senda,
Ulg'ayaman bag'ringda.
Doim bo'lay mehringda,
Ona xalqim - o'zbekim.

Yurtim, yanada yashna,
Senga fido bu jonim.
Omon bo'lg'in ilohim,
Ona xalqim - o'zbekim.

Maqtansam arzgulilik,
Nomlaring bor, Vatanim.
Ko'z-ko'z etib yurgulik,
Joylaring bor, Vatanim.

Nigora MAVLONQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut
tumanidagi 22-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi

KITOB

Sen qalbimning chirog'i,
Bilimlarning bulog'i.
Bizga keraksan har tob,
Chin do'stimdirsan, kitob.

Sening har bir sahifang,
Yaxshilikka chorlaydi.
Sendan olgan bilimlar,
Qalbim ichra porlaydi.

Sen hamrohim hamisha,
Yosh-qari qo'lga olar.
Seni o'qib bolalar,
Zukko, bilimdon bo'lar.

Topdim sendan ko'p javob,
Baralla kuylagayman.
Senga mehrim behisob,
Tinchlikni o'ylagayman.



Munisa ELIBOYEVA,
Samarqand viloyati, Paxtachi
tumanidagi 36-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi

Ertalabki nonushta payti. Butun oila jamul-jam. Oilaning eng kichik vakili bo'lgan Omina sanoqli kunlardan so'ng, o'n bahorni qarshilaydi. Shu sabab unga nima sovg'a qilib ko'nglini olsak ekan, degan o'ydagi dadasi so'z ochdi:

- Qizim, bir necha kundan keyin tug'ilgan kuning. Biz senga nima sovg'a qilsak ekan, deya rosa o'yladik. Yaxshisi, o'zingdan so'raymiz. Oying, men va akangga nima xohlashingni o'ylab ko'rib aytarsan, - dedi.

Omina maktabga ketarkan xayolan sovg'alar ro'yxatini tuzardi. O'zi gapiradigan qo'g'irchoq, qiziqarli etkak kitoblari... Shu payt bu shirin xayollarni qo'shnisi Saidjonning yig'isi tarqatib yubordi. Omina yugurib borib uning boshini siladi:

- Ukajonim Saidjon, senga nima bo'ldi, kim xafa qildi?

- Oyimdan xafa bo'ldim, anchadan beri velosiped olib berishlarini so'rayman, doim xo'p deydilar-u, olib bermaydilar.

- Xafa bo'lma, ukajon, sen har doim kulib yursang, orzularing, albatta, ushaladi, - deya Omina maktabga yo'l oldi.

Katta tanaffus payti uning ko'zi devordagi e'longa tushdi. Unda imkoniyati cheklangan bolalarga kitoblar va boshqa xil sovg'alar tayyorlanayotgani, kimki ushbu savobli ishga o'z hissasini qo'shishni xohlasa, o'qituvchilariga murojaat qilishi yozilgan edi.

Omina maktabdan qaytarkan, bugungi voqealarni ko'z oldidan birma-bir o'tkazdi. Endigina uyiga kirmoqchi bo'lganida, ikki eshik narida yashaydigan, farzandlari yaqindagina chet el safariga ketgan Oqil boboning darvozasi oldida «Tez yordam»

UCH TILAK RO'YOBI

(Hikoya)



mashinasi turganini ko'rdi-yu, chopib ichkariga kirdi. Bu paytda

boboning tepasida turgan shifokorlar unga turli xil tavsiyalar berardilar va ketishlaridan avval boboga zarur bo'lgan dorilar ro'yxatini uzatdilar. Omina Oqil bobodan hol-ahvol so'ragach, dorilar nomi yozilgan qog'ozni o'zida olib qoldi.

Oqshom payti Ominaning oila a'zolari dasturxon atrofiga yig'ilganlarida oyisi so'z boshladi:

- Qizim, ertalabki taklifimizni o'ylab ko'rdingmi?

- Ha, o'ylab ko'rdim. Dadajon, oyijon, menga ayni payt hech narsaning keragi yo'q, yordamga muhtoj bo'lganlarga nafim tegsa, deyman. Mana, masalan, qo'shnimiz Oqil

boboning toblari qochib, yotib qolibdilar. Mening birinchi istagim, ularning sog'ayishlari uchun kerak bo'lgan doridarmonlarni olib, tezda yetkazib berish.

- Barakalla, ona qizim, hoziroq iltimosingni o'zim bajaraman,

- dedi dadasi.

- Yana qo'shinimiz Saidjonning ko'ngli yarim, otasi vafot etgan, anchadan beri velosipedi bo'lishini xohlaydi. U menga o'z ukamdek bo'lib qolgan. Shuning uchun uning o'z velosipedi bo'lishini istayman.

- Albatta, qizalog'im, men o'zim unga sovg'a qilaman.

- Oxirgi tilagim shuki, qiziqarli kitoblarni bo'lishini xohlayman. Maktabimizda imkoniyati cheklangan bolalarga sovg'alar tayyorlanayotgani haqidagi e'lonni o'qidim. Shu ish uchun o'z hissamni qo'shsam, deyman.

- O'zing uchun-chi? Hech narsa so'ramaysanmi?

- Men so'raydigan narsalar ana shular, - dedi Omina jilmayib.

- Unda bu savobli ish uchun men ham o'z hissamni qo'shaman, - dedi akasi.

Ominaning oila a'zolari u istagan tilaklarni bajarishdi. Tug'ilgan kuni esa Oqil bobo sog'ayib, Omina uchun juda qiziqarli bo'lgan kitob, Saidjon va uning oyisi esa mazali tort va o'zi gapiradigan qo'g'irchoq sovg'a qilishib, bu xonadonda mehmon bo'lishdi. Eng kutilmagan voqea esa eshik taqillab, Ominaga imkoniyati cheklangan bolalarga qilgan yordami uchun minnatdorlik xatining kelgani bo'ldi. Hamma shod va baxtiyor edi.

Shahnoza MUHAMMEDOVA

PARAOSIYO O'YINLARI

unda sportchilarimiz ulkan natijalarni qo'lga kiritishdi

Janubiy Koreyaning Incheon shahrida nufuzli sport bayrami – Paraosiyo o'yinlari yakuniga yetdi. Qit'amizning 42 davlatidan 4 mingdan ziyod sportchi ishtirokida o'tkazilgan ushbu yirik sport anjumanida 27 nafar paratimpiyachimiz sportning yengil atletika, dzyudo, suzish, o'q otish turlari bo'yicha musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida sportni keng targ'ib etish, ular o'rtasida paralimpiya harakatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning samarasi o'laroq, yoshlarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda, Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlarida yurtimiz sharafini

munosib himoya qilishmoqda. Quvonarlisi, bu galgi Paraosiyo o'yinlari yurtimiz sporti tarixi zarvaraqilariga oltin harflar bilan yozib qo'yilishi, shubhasiz. Boisi, sportchilarimizning Incheonda qayd etayotgan natijalari bizni ana shunday fikr yuritishimizga turtki bo'lmoqda. O'zbekiston delegatsiyasi musobaqada 22

ta oltin, 5 ta kumush, 4 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 41 davlat orasida 5-o'rinni band etishdi. E'tiborli jihati, ko'plab sportchilarimiz turnirda oltin medallarni qo'lga kiritish bilan birga, qit'a rekordlarini yangilashdi.

Jumladan, suzish bo'yicha hamyurtimiz Dmitriy Xorlin bir yo'la uchta oltin medalga sazovor bo'ldi. U 50, 100 va 400 metr

masofaga suzish bahslarida o'z mahoratini namoyish etib, har uchala yo'nalishda Osiyo rekordini o'rnatishga erishdi. Yana bir mahoratli suzuvchimiz Kirill Pankov o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, 50 metrli masofaga erkin usulda suzishda raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmay, shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Uning qayd etgan natijasi ham Osiyo rekordi sifatida qayd etildi.

Yengil atletika bo'yicha bo'lib o'tgan bellashuvlarda ham paratimpiyachilarimiz tarixiy natijalarni qo'lga kiritishdi. Jumladan, 800 metr masofaga yugurish bahsida tengsiz ekanini isbotlagan hamyurtimiz Faxriddin Hamroyev Osiyo rekordini yangilaydi.

Yadro ulqotirish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda Mavlonbek Haydarov delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi oltin medalni qo'shib qo'yish bilan birga, Osiyo rekordini ham yangilashga muvaffaq bo'ldi.

Sportchilarimizga galdagi bellashuvlarda ham omad tilaymiz.

Poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida qizlar o'rtasida «Sharq yakkakurashlari malikasi – 2014» an'anaviy ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

SPORTIMIZ MALIKASI


O'zbekiston

Sharq yakka-kurashlari va jang san'atlarini rivojlantirish markazi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida o'tkazilgan tanlovda sportchi qizlar sportning turli yo'nalishlarida o'z iqtidorlarini namoyish etdi.

Bellashuvda ishtirokchi qizlarning ma'naviy-ma'rifiy, san'atga oid bilimlari, pazandalikka oid ko'nikmalari hamda kiyinish madaniyati sinovdan o'tkazildi.

Yakunda taekvandochi Maftuna Xudoyorova «Sharq yakka-kurashlari malikasi» degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Ushu bo'yicha sport ustasi Kamola Qurbonova ikkinchi, dzyudo bo'yicha qator nufuzli musobaqalar sovrindori Amina Mamedova uchinchi o'ringa munosib ko'rildi.

S. TURSINOV



YOSHLARIMIZ YANGI ZELANDIYAGA BORADI

9–24-oktabr kunlari Myanmada tashkil etilgan o'n to'qqiz yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo chempionati yakunlandi. Unda O'zbekiston yoshlar terma jamoasi yarim finalga qadar yetib borib, 2015-yil Yangi Zelandiyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Ravshan Haydarov yetakchiligidagi O'zbekiston terma jamoasi a'zolari «B» guruhidagi dastlabki uchrashuvda indoneziyalik tengdoshlarini 3:1 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Ikkinchi o'yinda Birlashgan Arab Amirliklari yoshlari bilan 2:2 natija qayd etildi.

Avstraliyalik tengqurlariga qarshi uchinchi uchrashuvni har ikki terma jamoa juda ehtiyotkorlik bilan boshladi. Avstraliya terma jamoasi 67-daqiqada hisobni ochishga muvaffaq bo'ldi. 82-daqiqaga kelib, Zabihillo O'rinboyev gol kiritib, hisobni tenglashtirishga erishdi. Qaysidir ma'noda Zabihillo BAAGA qarshi o'yinning so'nggi daqiqalarida gol kiritolmay, yo'l qo'ygan xatosini tuzatdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Avstraliyalik futbolchilar o'yin oxirlarida hujumga zo'r berishdi. Sababi, durang natija ularni qoniqtirmasligi tabiiy edi. Ammo bu vaziyatlarda darvozabonimiz yaxshi harakat qilib, xavfni bartaraf etib turdi. So'nggi daqiqalar biz uchun ancha tahlilali kechdi.



Ammo raqiblar darvozamizga boshqa gol kiritishga qodir bo'lmadi.

Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi «B» guruhida 5 ochko bilan ikkinchi o'rinni egallab, chorak finalga chiqdi.

Ushbu bosqichda futbolchilarimiz «A» guruhida birinchi o'rinni egallagan Tailand yoshlar terma jamoasiga qarshi maydonga tushdi.

Uchrashuvning beshinchi daqiqasida Zabihillo O'rinboyev raqib darvozasini aniq nishonga oldi. Oradan o'n besh daqiqa o'tib, u terma jamoamizning ikkinchi goliga ham mualliflik qildi.

Ikkinchi bo'lim boshida tailandliklar hisobni qisqartirishga muvaffaq bo'ldi – 2:1. Ushbu hisob o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi. Hamyurtlarimiz yarim finalda Shimoliy Koreya futbolchilariga mag'lub bo'lib, Osiyo chempionatidagi yurishini to'xtatdi.

Osiyo chempionati final uchrashuvida Qatar yoshlar terma jamoasi Shimoliy Koreyani 1:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi va qit'a chempionligini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston yoshlar terma jamoasi hujumchisi Zabihillo O'rinboyev yoshlar o'rtasidagi osiyo chempionati to'purariga aylandi. U bilan birga Qatar hujumchisi Ahmad al-Sadi va Shimoliy Koreya hujumchisi Jo Kwang Men ham shunday nomga sazovor bo'ldi. Bu hujumchilarning har biri beshmadan golga mualliflik qilgan.

Joriy yilning dekabr oyidan 2015-yil Yangi Zelandiyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga tayyorgarlik boshlanadi.

Shoh MUHAMMAD

RANGLAR SHAYDOSI

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida Qaytmas degan mahalla bor.

U yerda bir xonadon borki, tanigan-bilgan bu oilaga havas qiladi. A'zam aka va Mavluda opa Turdiqulovlar tarbiyalayotgan to'rt nafar farzandning kenjatoyi, tengdoshingiz Nodirbek tabiat ranglari shaydosi...



Yosh rassom hozirda 5-umumta'lim maktabi bitiruvchisi. U kelajakda Respublika rassomlik kollejida o'qishini davom ettirmoqchi. Orzulari osmon qadar bu yigit kelgusida mohir rassom-dizayner bo'lib, respublikamiz teatrlarida faoliyat yuritishni niyat qiladi.

Orzularing amalga oshsin, Nodirbek!

Nurbek QIDIRALIYEV

...«Ufqqa bosh qo'yayotgan Quyosh», «Guldondagi shoda nastarin», «Istambul ko'chalarida...», «Dengiz bo'yida» rasmlaridagi qorishiq ranglar olami yosh rassomning ichki dunyosi, qalb kechinmalari, orzularidan so'ylaydi. U hayotni yorqin ranglarda tasvirlashga harakat qiladi. Ufqqa botayotgan Quyoshning bo'zarishi, tun bo'yi yoqqan yomg'irdan ivergan terakning bosh egishi yoxud dengiz bo'ronida palmaning ayovsiz savalanishi... bularning barida hayot so'qmoqlaridagi sinovlarni ko'rasiz.

Nodirbek Turdiqulov ijodiy ishlari bilan ko'plab tanlovlarda ishtirok etib keladi. 2012-yili tumanlararo «Ishla qalamim, bo'ya bo'yog'im» tadbirida 1-o'rin sohibi, «O'zingdan aylanay, o'lkam» tanlovining viloyat bosqichida «Eng yaxshi devoriy gazeta» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. 2013-yili «Kamalak yulduzlari» respublika bolalar ijodiyoti festivali hamda joriy yilda «Yurt kelajagi» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida oliy o'ringa sazovor bo'ldi.

MUSAVVIR QIZLAR

Samarqand viloyati, Pastdar-g'om tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchilari Nilufar Jumayeva va Bahora Abdurahobovalarning chizgan rasmlarini ilk bor qo'lga olganimda, ularning dunyoqarashi, tasavvur olami boy ekanligiga amin bo'ldim. Ayniqsa, qizlarning ranglardan o'z o'rnida foydalanganligi diqqatimni beixtiyor o'ziga tortdi.

mohir rassom bo'lib kamolga yetishiga ishonchimiz komil.

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 178-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Navro'za Baxtiyorovanning rasmi



To'g'ri, hali ular chizgan rasmlarda kamchiliklar yo'q emas, lekin o'z ustida tinimsiz izlansa, o'qib-o'rgansa, ustozlari maslahatlariga quloq tutsa, ular kelajakda

haqida ham shunday fikr bildirishimiz mumkin. Eng asosiysi, u ham harakat va intilishdan to'xtamasa bas. Keling, tengdoshlaringiz jodiga Siz ham baho bering.

SA'DULLO

Kinoda hindular yuzlarini bo'yaganini ko'rgan bola otasidan so'radi:

- Nega ular yuzlarini bo'yashadi?
- Jangga tayyorlanishadi.

Ertasi kuni bola onasi bo'yanayotganini ko'rdi-yu, atasining yoniga chopdi:

- Dada, qochdik, onam jangga tayyorgarlik ko'ryapti!



Somsa pishirayotgan onasining ishini kuzatib turgan bola so'rabdi:

- O'yion, nega men bilan gaplashmayapsiz?
- Nima deb gaplashishim kerak, bolam?
- «Mana bu somsalardan yegin, jon bolam!» deb-da!

Shodmon OTABEK tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

So'z boyligingizni sinab ko'ring

Berilgan so'zlardagi harflardan foydalanib yangi so'z yasang. Qavs ichida topishingiz lozim bo'lgan yangi so'zga ta'rif berilgan.

MARDON	(Quvvat)	→	D A R M O N
KOTIB	(Ilm koni)	→	K I T O B
ADAD	(Ota)	→	D A D A
ZAFAR	(Taxmin)	→	Z A Z A
IRQ	(Adir)	→	Q I R

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

Gazetamizning 42-sonida berilgan «FARG'ONA VILOYATI» TOPSHIRIQLI AYLANMA KROSSVORDNING javoblari:

«Navbahor». Xonatlas. Farg'oniy. Haqiqati. Atletika. Voleybol. Qo'ychilik. «Istiqlol». Qo'g'irchoq. Oltiariq. «Kimyogar». Marg'ilon. Zokirjon. Karkidon. Ismoiliiy. Gulxaniy.

Topshiriq: Xudoyberdi To'xtaboyev. Anvar Obidjon. Farida Afro'z. Abdurahmon Jo'ra.

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

27-oktabr 2014

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSIYOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 30546
Buyurtma - S 1219

Bolajonlar, orangizda ko'pchiligingiz qovoqli taomlarni suyib iste'mol qilasiz, shunday emasmi? Uning jigar faoliyatini yaxshilashi, jumladan, S, B, B₂, PP singari darmondorilarga boyligi barchamizga ma'lum. Bugun sizlarga tavsiya etayotgan ajoyib yeguligimiz barchangizga manzur bo'ladi.

QOVOQLI KOSACHALAR

Kerakli masaliqlar: 1 ta kichkina qovoq, 300 gramm lahm go'sht, ikki dona kartoshka, ikki dona sabzi, ikki dona piyoz, tuz, murch.

Tayyorlanishi: Dastlab barcha sabzavotlar to'rtburchak shaklida to'g'rab, tog'orachaga solinadi. Qovoq ham urug'idan tozalani, to'g'ralgan sabzavotlarga qo'shiladi va tuz, murch solib yaxshilab aralashiriladi. Go'shtni o'rtacha kattalikda to'g'rab, kichikroq kosalarga avval go'sht, so'ng sabzavotli aralashma solinadi va qasqonga teriladi. Qovoqli kosachalar qasqonda 40 daqiqa davomida ushlab turiladi. Ichidagi sabzavotlar pishgach issiq holatda dasturxonaga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

